Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 182-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLAR

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT BILAN SHUG‘ULLANUVCHI KORXONALAR MAXSULOTLARNI INVENTARIZATSIYA JARAYONI O‘TKAZISH TARTIBI

MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
E-mail: misirovasliddin@gmil.com
ABDUG‘ANIYEV ORIFJON
Samarqand iqtisodiyot va servis intituti talabasi
E-mail: orifabduganiyev82@gmail.com
XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Samarqand iqtisodiyot va servis intituti talabasi
E-mail: shodmonxojamov558@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarni inventarizatsiya qilish jarayonining mazmuni, ahamiyati va uni amalga oshirish tartibi yoritilgan. Xususan, eksport va import operatsiyalari bilan bog‘liq tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, ularning haqiqiy mavjudligini aniqlash, buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtirish hamda aniqlangan farqlarni rasmiylashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, inventarizatsiya jarayonida bojxona hujjatlari, yuk xatlari, shartnomalar va boshqa hisob-kitob hujjatlarining o‘zaro muvofiqligini tekshirishning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Maqolada inventarizatsiyani samarali tashkil etish orqali mahsulotlar harakati ustidan nazoratni kuchaytirish, moddiy boyliklarning saqlanishini ta’minlash va moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, inventarizatsiya, eksport, import, mahsulotlar hisobi, tovar-moddiy zaxiralar, buxgalteriya hisobi, bojxona hujjatlari, ombor xo‘jaligi, moddiy boyliklar, moliyaviy nazorat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание, значение и порядок проведения инвентаризации продукции на предприятиях, осуществляющих внешнеэкономическую деятельность. Особое внимание уделяется учёту товарно-материальных запасов, связанных с экспортными и импортными операциями, определению их фактического наличия, сопоставлению полученных результатов с данными бухгалтерского учёта, а также документальному оформлению выявленных расхождений. Кроме того, анализируется значение проверки соответствия таможенных документов, товарно-транспортных накладных, договоров и других расчётных документов в процессе инвентаризации. В статье разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию организации инвентаризации, усилению контроля за движением продукции, обеспечению сохранности материальных ценностей и предотвращению финансовых потерь.
Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, инвентаризация, экспорт, импорт, учёт продукции, товарно-материальные запасы, бухгалтерский учёт, таможенные документы, складское хозяйство, материальные ценности, финансовый контроль.

Abstract. This article examines the content, importance, and procedure for conducting inventory of products at enterprises engaged in foreign economic activity. Particular attention is paid to accounting for inventory items related to export and import operations, determining their actual availability, comparing the results with accounting records, and documenting identified discrepancies. The article also discusses the importance of verifying the consistency of customs documents, shipping documents, contracts, and other financial records during the inventory process. Furthermore, proposals and recommendations are developed to improve inventory management, strengthen control over product movements, ensure the safekeeping of material assets, and prevent financial losses.
Keywords: foreign economic activity, inventory, export, import, product accounting, inventories, accounting, customs documents, warehouse management, material assets, financial control.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi va tashqi savdo operatsiyalarining jadallashuvi korxonalar faoliyatida mahsulotlar hisobi hamda ularning saqlanishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish masalasining dolzarbligini oshirmoqda. Ayniqsa, eksport va import operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarning harakatini to‘g‘ri hisobga olish, ularning haqiqiy mavjudligini aniqlash va buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan muvofiqligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida mahsulotlar nafaqat korxona omborlarida, balki transport vositalarida, bojxona hududlarida, vaqtincha saqlash omborlarida hamda xorijiy hamkorlar ixtiyorida bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda mahsulotlarning miqdori, sifati, qiymati va joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aniqligini ta’minlash alohida e’tibor talab qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda inventarizatsiya buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchliligini tekshirish, moddiy boyliklarning saqlanishini ta’minlash va korxona mulkidan oqilona foydalanish ustidan nazorat o‘rnatishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Inventarizatsiya jarayonida korxona balansida aks ettirilgan mahsulotlar va tovar-moddiy zaxiralarning amaldagi mavjudligi aniqlanadi, ularning hisob ma’lumotlariga muvofiqligi tekshiriladi. Natijada ortiqcha yoki kamomad holatlari, hisobga olishdagi xatolar, hujjatlardagi nomuvofiqliklar hamda mahsulotlar harakati bilan bog‘liq boshqa kamchiliklarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur jarayon tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, eksport qilinadigan mahsulotlar bo‘yicha xalqaro oldi-sotdi shartnomalari, yuk tashish hujjatlari, bojxona deklaratsiyalari va to‘lov hujjatlari o‘zaro muvofiq bo‘lishi lozim. Import qilinadigan mahsulotlarni inventarizatsiya qilishda esa ularning korxonaga kelib tushishi, qabul qilinishi, omborga joylashtirilishi va buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro yuk tashish jarayonida mahsulotlarning yo‘lda bo‘lishi, vaqtincha saqlash joylarida turishi yoki bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tish holatlari inventarizatsiyani tashkil etishda qo‘shimcha tekshiruvlarni talab etadi.

Inventarizatsiyani belgilangan tartibda va sifatli tashkil etish korxonada moliyaviy intizomni mustahkamlash bilan bir qatorda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ishonchli axborot bazasini shakllantiradi. Shu orqali mahsulotlarning yo‘qolishi, noto‘g‘ri hisobga olinishi, asossiz xarajatlarning yuzaga kelishi va moliyaviy zararlarning oldini olish mumkin. Ayniqsa, tashqi savdo operatsiyalarida valyuta kurslarining o‘zgarishi, transport xarajatlari, bojxona to‘lovlari va xalqaro shartnoma shartlari mahsulotlar qiymatini hisobga olishga ta’sir ko‘rsatishi sababli inventarizatsiya jarayonida hujjatlarni sinchiklab o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarni inventarizatsiya qilish jarayonini samarali tashkil etish, uning bosqichlarini to‘g‘ri belgilash, inventarizatsiya komissiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish va

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

aniqlangan natijalarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri rasmiylashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarni inventarizatsiya qilish jarayonini o‘tkazish tartibini o‘rganish, uning tashkiliy va hisobga oid xususiyatlarini tahlil qilish hamda inventarizatsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiyaning iqtisodiy mazmunini ochib berish, eksport va import mahsulotlarini hisobga olish xususiyatlarini o‘rganish, inventarizatsiyani o‘tkazish bosqichlarini tahlil qilish, bojxona va transport hujjatlarining hisob ma’lumotlari bilan muvofiqligini baholash hamda aniqlangan kamomad va ortiqcha mahsulotlarni rasmiylashtirish tartibini ko‘rib chiqish vazifalari belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarni inventarizatsiya qilish jarayonini tashkil etish, tovar-moddiy zaxiralar harakatini nazorat qilish va ularning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishini ta’minlash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlari inventarizatsiya, ichki audit, buxgalteriya hisobi, eksport-import operatsiyalari hamda ombor xo‘jaligini boshqarish bilan uzviy bog‘liqdir. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inventarizatsiya faqat mahsulotlarning jismoniy mavjudligini aniqlash vositasi emas, balki ularning harakati, saqlanishi, foydalanilishi va hisob ma’lumotlarining ishonchliligini baholashga xizmat qiluvchi muhim nazorat mexanizmi hisoblanadi.

Iskanov (2024) tadqiqotida budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishning birlamchi hujjatlari va buxgalteriya registrlari tizimlashtirilgan. Tadqiqotda inventarizatsiya natijalarining ishonchliligi faqat inventarizatsiya kunida o‘tkazilgan jismoniy sanoq bilan emas, balki hisobot davri davomida amalga oshirilgan kirim, ichki ko‘chirish, sarflash va hisobdan chiqarish operatsiyalarining to‘liq hamda o‘z vaqtida hujjatlashtirilishi bilan bog‘liqligi asoslangan. Muallifning fikricha, birlamchi hujjatlarning kechiktirib rasmiylashtirilishi yoki ombor kartochkalari bilan buxgalteriya registrlari o‘rtasida axborot uzilishining yuzaga kelishi inventarizatsiya jarayonida aniqlangan tafovutlarning sabablarini aniqlashni murakkablashtiradi. Ushbu ilmiy xulosalar tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida ham dolzarb bo‘lib, ayniqsa, import mahsulotlarini qabul qilish, eksport tovarlarini jo‘natish va transport jarayonidagi mahsulotlar harakatini hujjatlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kuliboyev (2023) davlat tibbiyot tashkilotlarida oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralari me’yorlari va ulardan og‘ishlarni tahlil qilish orqali tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i bilan kelgusi yil budjet parametrlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritgan. Muallif besh yillik hisobot ma’lumotlari asosida yil oxiridagi zaxiralar

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

qoldig‘ini belgilangan kunlik iste’mol me’yorlari bilan taqqoslagan. Tadqiqot natijalari inventarizatsiya davomida aniqlangan haqiqiy qoldiq nafaqat buxgalteriya balansiga tegishli tuzatishlar kiritish, balki kelgusi davr uchun xaridlar hajmini rejalashtirish va moliyaviy qarorlarni asoslashda ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, muallif me’yoriy ko‘rsatkichlardan og‘ishni jismoniy kamomad yoki ortiqcha mahsulot bilan tenglashtirmaslik lozimligini ta’kidlaydi. Chunki bunday og‘ishlar talab prognozidagi xatolar, mavsumiylik, yetkazib berish muddatlari yoki hisob ma’lumotlarining kechiktirib rasmiylashtirilishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Mazkur yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida mahsulotlar qoldig‘ini tahlil qilishda ham qo‘llanilishi mumkin. Xususan, import mahsulotlarining yetkazib berish muddati, eksport buyurtmalari hajmi va xalqaro bozordagi talab o‘zgarishlari zaxiralar miqdoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish, ularning saqlanishi va inventarizatsiya nazoratini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Rule (2021) AQSH Strategik milliy zaxirasi misolida favqulodda vaziyatlar uchun shakllantiriladigan tibbiy mahsulotlar zaxirasining yetarliligi, saqlanishi va muntazam yangilanishi masalalarini tadqiq etgan. Muallif zaxiralarni shakllantirishda mahsulotlarning yaroqlilik muddati, ulardan foydalanish imkoniyati va muntazam yangilab borish mexanizmlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Ushbu tadqiqot natijalari inventarizatsiya jarayonida mahsulotlarning faqat miqdori va qiymatini emas, balki sifati, yaroqlilik muddati hamda amalda foydalanish imkoniyatini ham baholash lozimligini ko‘rsatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda bu jihat ayniqsa muhim, chunki uzoq masofaga tashish, bojxona hududlarida saqlash va yetkazib berish muddatlarining cho‘zilishi ayrim mahsulotlarning sifati hamda foydalanish xususiyatlariga ta’sir qilishi mumkin.

Khouja va Hammami (2023) tadqiqotida budjet cheklovlari sharoitida davlat tashkilotlarida shaxsiy himoya vositalari zaxirasini shakllantirish va ularni saqlash muddatini hisobga olgan holda yangilab borish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda uzoq vaqt davomida saqlangan ayrim mahsulotlarning yaroqlilik muddati tugashi natijasida amaliy foydalanish imkoniyatini yo‘qotishi asosiy muammolardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Mualliflar zaxiralar hajmini oshirishning o‘zi yetarli emasligini, balki mahsulotlarni belgilangan muddatlarda iste’molga yo‘naltirish va ularning o‘rnini yangi mahsulotlar bilan to‘ldirib borish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur ilmiy yondashuv inventarizatsiya jarayonida mahsulotlarning yaroqlilik muddati, oxirgi harakat sanasi, saqlash sharoiti va aylanish tezligini baholash muhimligini ko‘rsatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida esa bu ko‘rsatkichlar eksport qilinadigan mahsulotlarning sifat talablariga muvofiqligini ta’minlash va import qilingan tovarlarning omborda uzoq muddat turib qolishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Fotoh (2025) Shvetsiya auditorlik amaliyoti misolida raqamli texnologiyalar va masofaviy kuzatuv vositalarining tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha auditorlik dalillarini to‘plashdagi imkoniyatlarini tadqiq etgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra,

raqamli vositalar inventarizatsiya jarayonida kuzatuv va ma’lumotlarni qayd etish samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq masofaviy kuzatuv orqali mahsulotlarning haqiqiy holatini, shikastlangan yoki eskirganligini, ombordagi barcha zaxiralarning to‘liqligini har doim ham to‘liq aniqlash imkoniyati mavjud emas. Shu sababli muallif raqamli texnologiyalarni jismoniy inventarizatsiyaning to‘liq o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi va nazorat dalillarini mustahkamlovchi mexanizm sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Bu yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida elektron ombor hisobi, shtrix-kod, RFID texnologiyalari va elektron hujjat aylanishidan foydalanish orqali mahsulotlar harakatini kuzatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiyani tashkil etish masalasi eksport-import operatsiyalarining buxgalteriya hisobini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan ham bevosita bog‘liq. Mirsobitova (2026) korxonalarning eksport va import faoliyatini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish hamda takomillashtirish masalalarini o‘rgangan. Tadqiqotda tashqi savdo operatsiyalarini hisobga olish, valyuta operatsiyalarini aks ettirish va moliyaviy axborotlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqot inventarizatsiya jarayonida eksport va import operatsiyalarining hisob ma’lumotlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki mahsulotlarning haqiqiy qoldig‘ini aniqlashda ularning xarid qiymati, transport xarajatlari, bojxona to‘lovlari va valyuta kurslari bilan bog‘liq hisob ma’lumotlarining to‘g‘ri shakllantirilishi ham muhimdir.

Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha amaldagi me’yoriy hujjatlar ham mazkur tadqiqotning muhim nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi. Xususan, 19-son BHMS — “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” standarti inventarizatsiyani o‘tkazish, uning natijalarini rasmiylashtirish va hisobda aks ettirish bilan bog‘liq talablarni belgilaydi. Shuningdek, 4-son BHMS — “Tovar-moddiy zaxiralar” standarti mahsulotlar va tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalarini tartibga soladi. Ushbu me’yoriy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida mahsulotlar inventarizatsiyasini qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar va me’yoriy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inventarizatsiya masalasi mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda asosan tovar-moddiy zaxiralar hisobi, ichki audit, ombor xo‘jaligi, mahsulotlar saqlanishi va zaxiralarni boshqarish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Biroq tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda inventarizatsiyani eksport-import operatsiyalari, xalqaro yuk tashish, bojxona rasmiylashtiruvi, konsignatsiya asosida saqlash va valyuta hisob-kitoblari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Ayniqsa, korxona omboridan tashqarida joylashgan, transport jarayonida bo‘lgan yoki uchinchi shaxslar mas’ul saqlovida turgan mahsulotlarning haqiqiy mavjudligini

tasdiqlash, ularning huquqiy maqomini aniqlash va buxgalteriya hisobidagi qoldiqlar bilan muvofiqligini baholash muhim ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarni inventarizatsiya qilish jarayonini o‘rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatish, hujjatli tekshiruv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning inventarizatsiya, tovar-moddiy zaxiralar hisobi hamda ichki auditga oid ilmiy ishlari o‘rganildi. Shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq mahsulotlarning kirim-chiqimi, omborlarda saqlanishi, transport jarayonidagi harakati va bojxona hujjatlarining to‘g‘ri rasmiylashtirilishi tahlil qilindi. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan mahsulotlarning haqiqiy mavjudligini solishtirish orqali inventarizatsiya jarayonida yuzaga keladigan kamomad, ortiqcha mahsulot va hujjatlardagi tafovutlarni aniqlash masalalariga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, inventarizatsiyani tashkil etish va tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishga oid buxgalteriya standartlari metodologik asos sifatida olindi. O‘rganilgan ma’lumotlar tahlil qilinib, tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiya samaradorligini oshirish, mahsulotlar harakati ustidan nazoratni kuchaytirish, elektron hujjat aylanishini rivojlantirish va buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar faoliyatida mahsulotlarni inventarizatsiya qilish muhim iqtisodiy nazorat vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki eksport va import operatsiyalari jarayonida mahsulotlar nafaqat korxona omborlarida, balki bojxona omborlarida, transport vositalarida, tranzit hududlarda hamda xaridor yoki vositachilarning vaqtincha saqlash joylarida bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda mahsulotlarning haqiqiy mavjudligini aniqlash, ularning buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga mosligini tekshirish va hujjatlar aylanishini nazorat qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo hajmining ortib borishi mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar–avgust oylarida mamlakat tashqi savdo aylanmasi 51,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning shu davriga nisbatan 19,8 foizga oshgan. Jumladan, eksport hajmi 23,0 mlrd AQSH dollariga yetib, 31,3 foizga, import hajmi esa 28,5 mlrd AQSH dollariga yetib, 11,8 foizga ko‘paygan. Ushbu raqamlar mamlakatda eksport-import operatsiyalari ko‘lami kengayayotganini va korxonalarda mahsulotlar harakatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2024–2025-yil yanvar–avgust oylaridagi tashqi savdo ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2024-yil	2025-yil	O‘sish sur’ati
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd dollar	42.95	51.44	19.8%
Eksport, mlrd dollar	17.50	22.98	31.13%
Import, mlrd dollar	25.44	28.45	11.8%
Tashqi savdo saldosi, mlrd dollar	-7.94	-5.47	--

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilning dastlabki sakkiz oyida eksport hajmi importga nisbatan tezroq o‘sgan. Eksportning o‘sish sur’ati 31,3 foizni, importniki esa 11,8 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, import hajmi eksportdan 5,47 mlrd AQSH dollariga yuqori bo‘lgan. Bu holat import qilinayotgan mahsulotlarni qabul qilish, miqdor va sifat jihatidan tekshirish, ombor hisobiga to‘g‘ri kiritish hamda bojxona hujjatlari bilan solishtirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratish lozimligini anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda inventarizatsiyaning ahamiyati, avvalo, mahsulotlarning harakatlanish bosqichlari ko‘pligi bilan izohlanadi. Ichki savdo bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlar asosan xarid qilish, omborga qabul qilish, saqlash va sotish jarayonlaridan o‘tsa, eksport-import korxonalarida bunga qo‘shimcha ravishda bojxona rasmiylashtiruvi, xalqaro tashish, tranzit, vaqtincha saqlash va xorijiy hamkorlarga topshirish jarayonlari ham qo‘shiladi. Natijada mahsulotlarning haqiqiy joylashuvi bilan buxgalteriya hisobida qayd etilgan joylashuvi o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Masalan, import qiluvchi korxona tomonidan xorijiy yetkazib beruvchidan sotib olingan mahsulotlar transportda yoki bojxona omborida turgan bo‘lishi mumkin. Agar ushbu mahsulotlar tegishli hujjatlar asosida hisobga olinmasa yoki ularning harakati o‘z vaqtida rasmiylashtirilmasa, korxona balansidagi zaxiralar to‘g‘risidagi ma’lumotlar noto‘g‘ri shakllanishi mumkin. Xuddi shuningdek, eksportga chiqarilgan mahsulotlar bo‘yicha yuk jo‘natish hujjatlari, bojxona deklaratsiyasi va xaridor tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar o‘zaro solishtirilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 4-sonli BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar” standartiga muvofiq, tashkilotlar tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy mavjudligini aniqlash, ularning saqlanishini nazorat qilish va realizatsiya qilish sof qiymatini tasdiqlash maqsadida yilida kamida bir marta inventarizatsiya o‘tkazishi lozim. Inventarizatsiya jarayoni 19-sonli BHMS talablariga muvofiq tashkil etiladi. Bu talablar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun ham muhim hisoblanadi.

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiya faqat ombordagi mahsulotlarni sanash bilan cheklanmasligi kerak. U mahsulotlarning butun harakat zanjirini, ya’ni yetkazib beruvchidan xarid qilishdan boshlab, korxona omboriga qabul qilish, saqlash, tashish va xaridorga topshirishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olishi lozim. Ayniqsa,

tranzitdagi va uchinchi shaxslar saqlovida turgan mahsulotlar bo‘yicha hujjatlarni tekshirish alohida ahamiyatga ega.

2-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiya jarayonining asosiy yo‘nalishlari

Inventarizatsiya yo‘nalishi	Tekshiriladigan ma’lumotlar	Aniqlanishi mumkin bo‘lgan holatlar
Korxona omboridagi mahsulotlar	Kirim-chiqim hujjatlari, ombor kartochkalari, haqiqiy qoldiq	Kamomad, ortiqcha mahsulot, noto‘g‘ri hisob
Import qilingan mahsulotlar	Shartnoma, hisobvaraq-faktura, bojxona deklaratsiyasi	Miqdor va qiymat tafovutlari
Eksportga jo‘natilgan mahsulotlar	Yuk xati, bojxona hujjatlari, qabul qilish dalolatnomasi	Jo‘natilgan va qabul qilingan mahsulotlar o‘rtasidagi farq
Tranzitdagi mahsulotlar	Transport hujjatlari, yuk kuzatuv ma’lumotlari	Yetkazib berishdagi kechikish va hujjat nomuvofiqligi
Mas’ul saqlashdagi mahsulotlar	Saqlash shartnomasi, tasdiqlovchi dalolatnomalar	Mahsulot mavjudligi va saqlanishi bilan bog‘liq tafovutlar

Tadqiqot natijalari asosida inventarizatsiya jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkinligi aniqlandi:

Birinchidan, mahsulotlarning joylashuvi bilan buxgalteriya hisobidagi ma’lumotlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik. Tashqi savdo operatsiyalarida mahsulotlar bir nechta ombor va transport vositalari orqali harakatlanishi sababli ularning joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z vaqtida yangilanmasligi mumkin.

Ikkinchidan, bojxona va transport hujjatlaridagi tafovutlar. Import yoki eksport jarayonida mahsulot miqdori, og‘irligi, nomenklaturasi va qiymati turli hujjatlarda qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar o‘zaro mos kelmaganda inventarizatsiya natijalarining ishonchliligi pasayadi.

Uchinchidan, valyuta kurslari bilan bog‘liq hisob-kitob masalalari. Import qilingan mahsulotlar qiymati xorijiy valyutada ifodalanganligi sababli ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda tegishli hisob siyosati va amaldagi me’yoriy talablarni hisobga olish zarur.

Inventarizatsiya samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar:

O‘tkazilgan tahlillar asosida tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiya jarayonini takomillashtirish uchun bir nechta takliflarni ishlab chiqish mumkin.

Birinchidan, korxonada mahsulotlar harakatini yagona elektron hisob tizimida yuritish maqsadga muvofiq. Bunda ombordagi, bojxona hududidagi, tranzitdagi va mas’ul saqlashdagi mahsulotlar alohida hisobvaraqlar yoki analitik hisob kesimlarida nazorat qilinishi kerak.

Ikkinchidan, inventarizatsiya jarayonida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini bojxona deklaratsiyalari, transport hujjatlari, shartnomalar va hisobvaraq-fakturalar bilan o‘zaro solishtirish tizimini joriy etish zarur. Bu hujjatlardagi tafovutlarni o‘z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Uchinchidan, mahsulotlarni shtrix-kod yoki QR-kod orqali identifikatsiya qilish tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv mahsulotlarning omborga kirimi, chiqimi va ichki harakatini tezkor qayd etish imkonini beradi.

Umumiy natija sifatida, tashqi savdo aylanmasining o‘sishi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish va nazorat qilish tizimiga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Inventarizatsiyani xalqaro savdo hujjatlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish mahsulotlarning haqiqiy qoldig‘ini aniqlash, hisob ma’lumotlarining ishonchliligini oshirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarni inventarizatsiya qilish buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash, mahsulotlarning saqlanishini nazorat qilish va moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Eksport-import operatsiyalari hajmining ortishi mahsulotlar harakatini nazorat qilish va inventarizatsiya jarayonini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiya faqat korxona omboridagi mahsulotlarni sanash bilan cheklanmasligi, balki bojxona omborlari, tranzitdagi yuklar va mas’ul saqlashga topshirilgan mahsulotlarni ham qamrab olishi lozim.

2. Inventarizatsiya jarayonida mahsulotlarning haqiqiy miqdori buxgalteriya hisobi ma’lumotlari, bojxona deklaratsiyalari, transport hujjatlari va shartnomalar bilan o‘zaro solishtirilishi zarur.

Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalarida inventarizatsiyani xalqaro savdo hujjatlari va buxgalteriya hisobi bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish korxona aktivlarining saqlanishini ta’minlaydi. Taklif etilgan tavsiyalarni amaliyotga joriy etish mahsulotlar harakati ustidan nazoratni kuchaytirish, hisob ma’lumotlarining aniqligini oshirish hamda eksport-import operatsiyalarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 141-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 19-sonli BHMS “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”. LexUZ.

3. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti, 4-sonli BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar”. LexUZ.

4. Sindarov. (2023). Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va inventarizatsiyasini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot.

5. Iskanov. (2024). Korxonalarda inventarizatsiya jarayonini tashkil etish va ichki nazorat masalalari.

6. Kuliboyev. (2023). Tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish masalalari.

7. Rule. (2021). Inventarizatsiya va zaxiralarni boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot.

8. Neve, J. & Schmidt, M. (2022). Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va hisobga olish masalalariga oid tadqiqot.

9. Khouja, M. & Hammami, R. (2023). Ta’minot zanjiri va zaxiralarni boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot.

10. Rosales, Nair & Pal. (2023). Ta’minot zanjirida mahsulotlar harakati va zaxiralar nazoratiga oid tadqiqot.

11. Fotoh. (2025). Inventarizatsiya va moliyaviy hisobot ishonchliligiga oid ilmiy tadqiqot.

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yil yanvar–avgust oylarida O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. O‘zA — statistik ma’lumotlar.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy